

MEVA SHARBATLARINI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TOVAR NOMENKLATURASIDA SINFLANISHIGA OID TAKLIF VA MULOHAZALAR

Yigitaliyeva Navbahor Orifjon qizi

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17533712>

Annotatsiya: Xozirgi vaqtda mamlakatimizda qo'llanilayotgan TIF TN Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqilgan Tovar nomenklaturasi bo'lib, u MDH uchun qabul qilingan variant asosida ishlab chiqilgan. Amalda YevroOsiyo Iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan 10 xonali Tashqi Iqtisodiy faoliyat Tovar Nomenklaturasidan foydalaniladi. Mazkur Tashqi Iqtisodiy faoliyat Tovar Nomenklaturasi O'zbekiston manfaatlarini yetarlicha ximoya qilmaydi.

Kalit so'z: TIFTN, meva sharbati, temir, kimyoviy tarkib

Respublikamizda 10 xonali TIF TN dan foydalaniladi. Ammo iqtisodiy jixatdan muxum bo'lgan tovarlarni to'la ifoda etmaydi. Biz hozirgi kunda maxsulotlarning Tashqi Iqtisodiy faoliyat Tovar Nomenklaturasi kod raqamlarini taxlil qilib Respublikamiz iqtisodiy manfaatlarini ximoya etadigan Tovar kodlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan xisoblanadi. Misol uchun olma sharbati maxsulotiga 200971; va 200979 kod raqamlari berilgan. Kodlashda asosiy etibor maxsulot tarkibidagi qand miqdoriga qaratilgan kodlashda olma tarkibidagi mikroelementlar (temir, nikel, kobolt va boshqalar), vitaminlar (A, B, PP), organik kislotalar va boshqa jixatlar etiborga olinmagan. O'zbekistonda yetishtirilayotgan mevalar boshqa mamlakatlarda yetishtirilayotgan mevalardan tarkib jixatdan ancha mikroelementlarga boyligi bilan farq qiladi.

Respublikamizda yetishtiriladigan barcha mevalardan sharbatlar tayyorlanadi va eksport qilinadi. Lekin, ularga narx hamda kod raqamlari belgilashda kimyoviy tarkib xisobga olinmaydi. Bundan tashqari yil davomida pishib yetiladigan turli mavsumlarga tegishli mevalarimiz bor. Shulardan biri olma mevasidir. Olma qadimdan kamqonlikni davolashda tabiiy vosita sifatida qo'llanilib kelinadi. Ayniqsa bu o'rinda xalq tabobatida may-iyun oylarida pishib yetilgan olmalarni ko'proq istemol qilish tavsiya etiladi. Nima uchun? Bu savolga javob topish va TIFTN da olma sharbatlari kod raqamlari uchun aniqlik kiritish maqsadida olma tarkibidagi temir miqdorini o'rganishni lozim topdik.

Olma tarkibidagi temir miqdorini aniqlash uchun fotokolorimetrik usuldan foydalanildi. Meva sharbati tarkibida temir borligini aniqlash uchun cho'ktirish usulidan ham foydalansa bo'ladi ammo, bazi kamchiliklar yuzaga keladi. Masalan temir uchinchi grupp kationi hisoblanadi unga guruppa reagent tasir ettirib cho'ktirganimizda temir bilan birga boshqa 3-guruh kationlari ham cho'kishi mumkin natijada temirning miqdori aniq bo'lmaydi va tekshirishlar natijasida mavhumliklar yuzaga keladi. Shuning uchun biz olma mevasi va sharbati tarkibidagi temir miqdorini aniqlashning eng qulay usulini tanladik.

Tadqiqot obekti sifatida turli mavsumlarda pishib yetilgan va quritilgan olma qoqilar olindi.

Quyida o'tkazilgan tekshirish bayonini keltiramiz.

Tajriba: Xavoda quritilgan quruq olma qoqisidan **400 gr** olib 80 dan 1000 gradus temperaturagacha mufel pechida kuydirdik. Mineral qoldiq tortildi **1.124 gr** chiqdi, uni HNO₃ ning 10% li eritmasida eritib filtrlab oldik, filtratni 50 ml xajmli kolbaga o'tkazdik va amiakning

10 % li eritmasi bilan neytralladik Universal indikator neytral muxitni ko'rsatgach eritma xajmini suv bilan kolba belgisigacha yetkazdik. Boshqa 50 ml li kolba olib, 20 ml tekshirilayotgan eritma ustiga pipetka bilan 10 ml 10% li sulfosalitsil kislota eritmasidan va 10 ml 10% li amiak eritmasidan qo'shildi. Standart eritma uchun 0.8636 gr ammoniy temir (III) sulfat kristalogidratini 1 litr suvda eritib undan 10 ml kolbaga quydik. Tayyorlagan standart eritmamizning 1 ml tarkibida 0.01 mg temir (III) ioni saqlaydi. Standart eritmaga ham 10 ml 10% li sulfosalitsil kislota eritmasidan va 10 ml 10% li amiak eritmasidan qo'shildi, sababi temir(III) ioni sulfosalitsil kislota bilan sariq rangli kompleks xosil qiladi. Standart eritma bilan tekshirilayotgan eritma rangi bir xil bo'lishi lozim. Xar ikkala eritmada 10 ml dan olib aloxida aloxida fotokolorimetr kyuvetasiga solindi. Tekshirilayotgan eritmaning qavat balandligi o'zgartirilib optik muvozanat xolatiga keltirildi. Temir miqdori quyida keltirilgan formula orqali topildi. (26)

$$M(\text{Fe}) = \frac{L(\text{standart})}{L(\text{teksh})} \cdot v \cdot 0,01 \cdot \frac{1000}{V}$$

Olingan natijalar jadvalda umumlashtirildi.

6-jadval

№	Fasllar	Olma mevasi yetilgan davr	Temir miqdori (mg) da	Temir miqdori % da	Quritilgan olma miqdori (gr) da	Kuydirilgan dan so'ng qolgan qoldiq
1	Bahor	may-iyun	0.4950	$12.06 \cdot 10^{-7}$	400 gr	1.24 gr
2	Yoz	iyul-avgust	0.4504	$11.26 \cdot 10^{-7}$	400 gr	1.28 gr
3	Kuz	sentabr-oktabr	0.4348	$10.87 \cdot 10^{-7}$	400 gr	1.13 gr

Jadvaldagi analiz ma'lumotlari olma tarkibidagi temir miqdori nisbatan bahorgi mavsumda yetilgan olmalarda ko'pligini ko'rsatdi.

Temir moddasi olma mevasining qaysi qismlarida to'planishini o'rganish maqsadida yangi yetilgan baxorgi olmaning po'stlog'ini artib olib, xavoda quritildi. Keyingi tekshiruvlar yuqoridagi tartibda olib borildi. Olma mevasining po'stlog'ida temirning asosiy miqdori to'planar ekan. Xavoda quritilgan olma po'stlog'i massasiga nisbatan $19,06 \cdot 10^{-6}$ % ni tashkil etdi. Agar bu qiymat quritilgan olmaga nisbatan xisoblansa $11,88 \cdot 10^{-7}$ % ni tashkil etdi.

Po'stlog'i artib olingan olma tarkibida temir mikroelementi juda oz ekanligini tekshiruvlarimiz tasdiqladi.

Demak temir mikroelementi olma mevasining asosan po'stlog'i ostida to'planar ekan deb xisoblashimiz mumkin.

Olma sharbatida temir miqdorining saqlanib qolganlik darajasi o'rganish uchun turli mavsumlarda pishib yetilgan olma mevalaridan sharbat ajratib olindi, so'ng qolgan qoldiq

tekshiruvdan o'tkazildi. Buning uchun olma turpining bir qismi xavoda quritibolindi. Ikkinchi qismi bir necha marta suvda yuvib yuborilib, so'ngra quritildi. Ulardagi temir miqdorining o'rganilishi yuqoridagi tartibda olib borildi.

Yuvilmagan olma turpida qutilgan mevaga nisbatan qolgan temir miqdori $5,65 \cdot 10^{-7}\%$ ekanligi qayd etildi. Bu miqdor olmadagi temir miqdorining deyarli yarmini tashkil etadi. Suv bilan yuvilgan olma turpida esa temirning mavjudligi tasdiqlanmadi.

Shu o'rinda aytish mumkinki olmadan sharbat ajratib olingan paytda undagi temirning yarmi turpida qoladi.

Olma mevasining turli mavsumlarda yetilishi va undagi inson organizimi uchun foydali temir mikroelementi miqdorining turlicha ekanligi uning va undan olingan sharbatlarni Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Tovar Nomenklaturasida sinflanishining tangi kod raqamlarini ishlab chiqishda asos qilib olindi.

Bu tadqiqotlarning dastlabki natijasi. Qo'yilgan savollarga to'la javob topish uchun izlanishlarni davom ettirmoqchimiz.

Mevalarimizning shifobaxshligini ilmiy asosda ochib bera olsak, shubxasiz sharbatlarga berilgan kod raqamlariga tegishli o'zgartirishlar kirita olamiz. Bu esa ularning xaridorgirligini oshiradi, albatta bu investitsiya soxiblarini qiziqishiga sabab bo'ladi. Turli navlarga mansub olmalardagi mikroelementlar tarkibini o'rganish ishlarini davom ettirib O'zbekiston manfaatlarini ximoya etadigan meva sharbatlari uchun kod raqamlari ishlab chiqib, mamlakatimizning rivojlanishiga o'z xissamizni qo'shish niyatidamiz. Maxsulotlarning uyg'unlashgan tizim asosida Tashqi Iqtisodiy faoliyat Tovar Nomenklaturasining amaldagi kodlarini taxlil qilib tovarning yangicha klassifikatsiyalash qoidalarini ishlab chiqib, izohlab O'zbekiston Respublikasi Milliy Tovar Nomenklaturasida qo'llash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, Investetsiya va savdo vazirliklariga taklif va tavfsiyalar kiritishni rejalashtirganmiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности Узбекистана. Тошкент, 2012
2. П.Колесников. Яблоня и груша. Москва, Урожай, 1985, 248с.
3. Ф.Лихонос. Яблоня. Ленинград, Колос, 1972, 426с.
4. М.М.Мирзаев и дрг «Помология Узбекистана» Ташкент «Узбекистан» 1983 245л 13-93